

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 2

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 2

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotiblar: Ozoda Tojiboyeva
Sanjar Mavlonov

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ūlvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ūşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova

Executive secretaries: Ozoda Tajibaeva
Sanjar Mavlanov

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamid Bozorov

Fonetik dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari (o'zbek xalq ertaklari matnlaridagi dialektizmlar misolida).....6

Noorullah Altay, Tuyg'un Hussamuddin

O'zbek adabiy tilidagi ayrim muammoli so'zlar xususida.....20

Sabohat Bozorova

"Devonu lug'oti-t-turk" dagi ot bilan bog'liq leksika va maqollar.....36

Efsane Baxsheliyeva

Azərbaycan türkçesinde ve ingilizcede dost ve düşman kavramlarının dile yansımaları.....60

Nigar Babayeva

Azərbaycan türkçesinde ve İngilizcede kültürel kelimelerin (realiaların) çeviri süreci ve bu süreçte karşılaşılan zorluklar.....73

Adabiyotshunoslik

Shamsuddin Ortaq

Yıldızlı Geceler Romanında Babür ile Nevai'nin Edebi İlişki Kapsamının Yansıması.....86

Fan. Ta'lim. Metodika

Madina Nazarova

Diplomatik diskursda *tema* va *rema* modellari.....99

San'at

Sabina Namazova

16 yūzyıl Tebriz ve Babür Minyatür Okullarının Yapısal-tipolojik paralelleri.....113

CONTENT

Linguistics

Hamid Bozorov

Lingvopoetic Features of Phonetic Dialectisms (examples of Dialectisms in the Texts of Uzbek Folk tales).....6

Noorullah Altay, Tuygun Hussamuddin

On some Problematic words in the Uzbek Literary Language.....20

Sabohat Bozorova

Vocabulary and Proverbs Related to Horses in the “Dīwān Lughāt al-Turk”36

Efsane Bakhsheliyeva

The Concepts of Friend and Enemy in Azerbaijani and English.....60

Nigar Babayeva

Translation Process of Cultural Words (Realias) in Azerbaijani Languages and English and the Challenges Encountered in this Process.....73

Literature

Shamsuddin Ortaq

The Reflection of Babur and Navai’s Literary Relationship in *The Starry Nights*.....86

Science. Education. Methodology

Madina Nazarova

Theme and Rheme Patterns in Diplomatic Discourse: Implications For Esp Pedagogy.....99

Art

Sabina Namazova

Structural-typological parallels of the 16th century Tabriz and Babur Miniature Schools.....113

LINGVISTIKA

LINGUISTICS

Fonetik dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari

(o'zbek xalq ertaklari matnlaridagi dialektizmlar misolida)

Hamid Bozorov¹

Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek xalq ertaklari tilidagi fonetik dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari va funksional ahamiyatini tadqiq etganligi, ertak matnlari xalq tilining qadimgi qatlamlarini, arxaik fonetik unsurlarni saqlab qolgan nodir lisoniy manba sifatida ko'rilganligi bilan ahamiyatlidir. Tadqiqotda fonetik dialektizmlar tizimli tahlil qilinib, misollar asosida tadqiq etilgan. Shuningdek, xalq ertaklaridagi fonetik dialektizmlar matnda ikki asosiy vazifani, birinchidan, tarixiy-lingvistik merosni aks ettirish, ya'ni konsonant klasterining soddalashuvi, epenteza, eliziya, assimilyatsiya va konsonant epiteza kabi murakkab fonetik jarayonlarning izlarini saqlash, ikkinchidan, badiiy-estetik ekspressivlik va mintaqaviy koloritni yaratish orqali qahramonlar nutqini tabiiylashtirish maqsadida qo'llanishi izohlangan.

Kalit so'zlar: *fonetik dialektizmlar, lingvopoetik xususiyatlar, shevalar, izoglossa, eliziya, epenteza, affrikatsiya, konsonantizm, mintaqaviy kolorit, badiiy-ekspressivlik.*

Kirish

O'zbek xalq ertaklari xalq og'zaki ijodining qadimiy, ko'p qatlamli hamda tarixiy-lisoniy taraqqiyot bosqichlarini o'zida mujassam etgan muhim janrlardan biri hisoblanadi. Ushbu janrning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u xalq tilining qadimgi qatlamlarini, ya'ni arxaik leksik birliklar hamda fonetik unsurlarni hozirgi kungacha yetkazib kelgan. Bunday til qatlamlari nafaqat ertaklarning badiiy-estetik qiymatini belgilaydi, balki ularning

¹Hamid Bozorov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Termiz davlat universiteti.

E-mail: hamidbozorov65@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-1650-3801

Iqtibos uchun: Bozorov, H. 2025. "Fonetik dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari (o'zbek xalq ertaklari matnlaridagi dialektizmlar misolida)". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 6–19.

tarixiy-lisoniy manba sifatida qimmatligini ham oshiradi. Xususan, ertak matnlarida qo'llanadigan dialektizmlar alohida ahamiyat kasb etadi. Dialektal birliklar ertakning mintaqaviy koloritini yoritishda, qahramonlarning nutqini tabiiylashtirishda va folkloriy obrazlarni jonlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi hamda ertak syujetida qahramonlarning mintaqaviy nutq xususiyatlarini aks ettirib, real muloqot muhitini yaratadi. Bu orqali ertak nafaqat badiiy asar sifatida, balki xalq tili va madaniyatining mintaqaviy rang-barangligini saqlovchi manba sifatida ham qadrlanadi. Bundan tashqari, dialektizmlar ertakning estetik qimmatini ham oshiradi. Ular obrazli ifodaning jonli va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi, milliy mentalitetga xos til unsurlarini boyitadi va tinglovchiga yaqinroq, tushunarliroq muhit yaratadi. Bunda, ayniqsa, fonetik dialektizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, o'zbek xalq ertaklari dialektal unsurlar orqali xalqning til boyligini, tarixiy qatlamlarini va mintaqaviy tafakkur shakllarini aks ettiruvchi nodir lisoniy manba sifatida ilmiy tadqiqot uchun nihoyatda qimmatlidir.

Asosiy qism

Ertak matnlarida uchraydigan dialektizmlar bu adabiy til-dan farq qiluvchi, hududiy chegaralangan leksik birliklar bo'lib, ular shevalarda faol qo'llaniladi. Dialektal qatlamning xalq ertaklarida qo'llanishi bu janrning lingvopoetik strukturasi boyitadi va uni xalq tilining tabiiy oqimiga yaqinlashtiradi. O'zbek tilshunosligida dialektlarga oid bir qator izohli, qiyosiy va hududiy lug'atlar tuzilgan bo'lib, F.Abdullayev [Абдуллаев 1966, 172], A.Ishayev [Ишаев 1990, 140], S.Rahimov [Раҳимов 1985, 96; 1993, 122] kabi olimlarning bu boradagi xizmatlari katta bo'ldi. Shevalar fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar X.Doniyorov [Дониёров 1968, 96], A.Aliyev [Алиев 1974, 219], A.Aliyeva [Алиева 1975, 92], X.Jo'rayev [Жўраев 1981, 120], N.Rajabov [Ражабов 1990, 132], D.Abdullayeva [Абдуллаева 1999, 25], Y.Ibrohimov [Иброҳимов 2000, 366], N.Shoimova [Шоимова 2000, 140], M.Begaliyev [Бегалиев 2007, 126], A.Allaberdiyev [Аллабердиев 2016, 216; 2018, 49; 2025, 69], I.Darveshov [Дарвишов 2019, 148], U.Ibragimova [Ибрагимова 2019, 52], F.Nurmanov [Nurmanov 2024, 46], X.Qodirova [Qodirova 2023, 52] kabi olimlarning ishlarida o'z ifdasini topdi. Ayrim tadqiqotlarda badiiy asarlardagi dialektizmlarning o'ziga xos tomonlari ochib berildi. Shevashunos T.Enazarov ta'kidlaganidek: "Shevalarimiz o'zbek adabiy tilining poydevori va o'sish-o'zgarishining o'zagi

sanaladi. Demak, shevalarimizni ilmiy asoslarda o'rganishga, albatta, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy va ilmiy-nazariy jihatlardan ehtiyoj sezilmoqda" [Enazarov 2012, 5]. Shu ma'noda, dialektal birliklarning asosiy manbalari sifatida xalq og'zaki ijodi namunalari, xususan, ertak matnlari alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki bunday matnlar tarix va bugungi kunni bog'lovchi lingvomadaniy ko'prik vazifasini bajaradi hamda xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlari haqida qimmatli ma'lumot beradi. Ertaklarda uchraydigan dialektal birliklar, avvalo, shevalarning tarixiy shakllanish jarayoni va ularning hududiy-dialektal xususiyatlarini yoritishda muhim til materiallari hisoblanadi. Shu sababli ular tahliliy-lingvistik obyekt sifatida alohida tadqiqni talab qiladi. Bunday yondashuv nafaqat xalq ertaklari tilidagi fonetik, leksik va grammatik o'ziga xosliklarni aniqlash imkonini beradi, balki ularning *adabiy til bilan o'zaro munosabatini, badiiy-estetik vazifasini va tarixiy-lisoniy ahamiyatini* ham ochib beradi. Demak, ertak matnlarida mavjud dialektal birliklarni tizimli ravishda tadqiq etish, ularni fonetik, semantik va funksional jihatdan tahlil qilish xalq tili taraqqiyoti, milliy og'zaki merosning estetik qiymati hamda adabiy tilning shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi. Aynan shu jihatdan olib qaraganda, xalq ertaklarida uchraydigan dialektal qatlam unsurlarini aniqlash, ularning adabiy tilga nisbatan munosabati, semantik-funksional vazifalarini, shuningdek, stilistik rolini aniqlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilandi.

Ushbu tadqiqot o'zbek xalq ertaklari matnlaridagi fonetik dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi ilmiy metodlarga asoslanadi: Deskriptiv tahliliy metod asosiy metodologik yondashuv sifatida tanlab olindi. Undan maqola matnidan tanlangan dialektal birliklarni (masalan, *jugan, kap, chochib, o'tirish, qaqqqa, namuncha* kabi) ajratib olish, ularning adabiy til me'yorlaridan fonetik tafovutlarini tavsiflash hamda dialektal hodisalarni ilmiy asosda tahlil qilishda foydalanildi. Bu metod ertak matnlarida fonetik dialektizmlarning mavjudligini va ularning tuzilishini aniqlashga xizmat qildi.

Lingvopoetik va funksional-semantik tahlil metodi dialektizmlarning badiiy matn ichidagi o'rnini, ya'ni ularning lingvopoetik xususiyatlarini ochish uchun qo'llanildi. Bu tahlil fonetik dialektizmlarning qahramon nutqini tabiiylashtirish, mintaqaviy koloritni yaratish hamda matnning ekspressiv-estetik qiymatini oshirishdagi funksional vazifalarini aniqlash imkonini berdi.

Dialektal birliklarning uslubiy yuklamasi va semantik ta'siri shu metod orqali asoslab berildi.

Dialektizmlarning lingvopoetik tahlili

Dialektizmlarning lingvopoetik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular ertak matnining estetik va semantik qatlamida faol ishlatiladi. Masalan, *“cho'mak” (cho'p)*, *“isirg'a” (sirg'a)*, *“xo'bchi” (xirmonchi)*, *“og'ayo” (aka-uka)*, *“yugirak” (yuguruvchi)* kabi dialektizmlar mintaqaviy shevalarga xos bo'lsa-da, ular ertak tiliga kirib, obrazlar ruhiyatini, voqea fonini va qahramon nutqini tabiiy va jonli ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa matnning konnotativ, ekspressiv va estetik qiymatini kuchaytiradi. Shundan kelib chiqib, xalq ertaklari tilida mavjud dialektal birliklarning ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

1. Obraz va voqelikni tabiiylashtirish. Bunda dialektal birliklar ertakdagi voqea-hodisalarni sun'iylikdan xoli, tabiiy tarzda aks ettirishga xizmat qiladi. Masalan, *“isirg'a”*, *“cho'mak”*, *“yugirak”*, *“unnab”* kabi so'zlar xalq tilida jonli ishlatilganligi sababli qahramonlar nutqini real hayotga yaqinlashtiradi. Bu esa ertakdagi obrazlarning hayotiyligiga, xalqona bo'lishiga olib keladi.

2. Mintaqaviy koloritni yoritish, ya'ni har bir dialektizm muayyan geografik hududga xos til unsuri bo'lib, mintaqaviy til koloritini ifodalaydi. Masalan: *“xo'bchi”* Farg'ona, *“juganlatmoq”* Surxondaryo, *“qarincha”*, *“sazaq”* kabilar Xorazm hududlarining o'ziga xos badiiyatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

3. Estetik va ekspressiv boylik yaratish. Dialektizmlar ko'pincha ekspressiv va emotsional ma'no yuklaydi. Bular ertak matnining badiiy-estetik qatlamini boyitadi. Masalan: *“og'ayo”* dialektizmi nafaqat *“aka-uka”*, balki mehr-muhabbatni bildiruvchi yaqinlik ifodasi yoki *“yugirak”* oddiy yuguruvchidan ko'ra chaqqon, epchil obraz yaratadi.

4. Adabiy til va xalq tili o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taydi. Xususan, ertaklardagi dialektizmlar xalqning og'zaki nutqiga xos til qatlamini aks ettirib, adabiy til va xalq tili o'rtasida vositachilik qiladi. Bu orqali xalq ertaklari lingvistik avlodlararo uzviylikni ta'minlaydi.

5. Stilistik va funksional yuklama. Bu jarayonda ertak qahramoni nutqini xarakterlashda, voqealar zamonaviylikdan uzoq arxaik fonda kechayotganini bildirishda hamda lug'aviy sinonimlar yaratish orqali stilistik xilma-xillik hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Tilning tarixiy qatlamini saqlash. Ertaklardagi ayrim dialektizmlar arxaik xarakterda bo'lsa-da, qadimiy og'zaki nutq unsurlarini hozirgacha yetkazishda, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aks ettirishda ma'lum vazifa bajaradi.

Aytish mumkinki, xalq ertaklari boshqa folklor janrlari kabi an'anaviy ijodkorlar: ertakchi, baxshi, lofchi, qissaxonlar va h.k.lar tomonidan og'zaki ijro etilgan bo'lib, ular tilning og'zaki shaklini, ayniqsa, dialektal qatlamini jonli ifoda shaklida saqlab qolgan. O'tgan asrning 60-70-yillarigacha faol bo'lgan o'zbek ertakchilik maktablarida yozib olingan ertak matnlarida xalq tiliga xos ko'plab dialektal unsurlarni uchratish mumkin. Bugungi kunga kelib, ertaklar to'plamlarida adabiy til me'yorlariga amal qilinishi natijasida, shevaga xos birliklarning kamaygani kuzatiladi. Buni V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov quyidagicha izohlaydi: "Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta'siri O'zbek xalq shevalarida til faktlarining aralashuvi va tekislasha borish jarayonini tezlashtirdi. Chunki o'zbek xalqining ekonomikasi va madaniyati mislsiz darajada yuksalishi bilan o'zbek adabiy tilining qo'llanish doirasi kengaydi" [Решетов, Шоабдурахмонов 1978, 19]. Biroq bu holat dialektizmlarning butkul yo'qolganini anglatmaydi. Xalq ertaklari to'plamida dialektal birliklar saqlanib qolgan bo'lib, ular ertakning milliy ruhini, estetik obrazlilikini hamda milliy tafakkur doirasini aks ettirishda alohida o'rin egallaydi.

Xalq ertaklari matnidagi dialektal qatlam unsurlarini lingvopoetik va funksional jihatdan tahlil qilish bizga ularning tarixiy-lingvistik meros sifatidagi qiymatini, badiiy-estetik ekspressivligini, shuningdek, adabiy til bilan o'zaro aloqadorlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Shunga asoslanib, xalq ertaklari tilida mavjud dialektizmlarning asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Dialektal qatlamning xalq ertaklaridagi asosiy maqsadi

Dialektal qatlam unsurlarining asosiy maqsadi	Lingvopoetik jihati	Funksional jihati
Tarixiy-lingvistik merosni saqlash	Dialektizmlar qadimgi turkiy til unsurlarini, tarixiy shakllarni yodga soladi; ertaklarda ularning qo'llanishi xalq tilining davomiyligini ko'rsatadi.	Avloddan avlodga o'tgan til xususiyatlarini asrab qoladi, tilning tarixiy bosqichlarini o'rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.
Badiiy-estetik ekspressivlik yaratish	Dialekt so'zlar ertak qahramonlarining nutqini jonlantiradi, xalqona ruh va milliy koloritni kuchaytiradi.	O'quvchiga obrazli ta'sir ko'rsatadi, xalq nutqiga xos ohang va kayfiyatni yetkazadi.

Milliy-lokal koloritni ifodalash	Ertak qahramonlarining yashash muhitiga xos sheva unsurlari tasviriylikni kuchaytiradi.	Mintaqaviy xususiyatlarni ko'rsatib, ertakni ma'lum bir hudud xalqiga yaqinlashtiradi.
Xalq og'zaki ijodining tabiiyligini ta'minlash	Shevaga xos so'z va shakllar ertakning "xalq og'zidan yozib olingan"ligi taassurotini beradi.	Adabiy tildan farqli, samimiy va tabiiy ohangni yuzaga chiqaradi.
Adabiy til bilan dialekt o'zaro aloqadorligini ko'rsatish	Adabiy til va dialektlar o'rtasidagi sinonimik qatlam, morfologik va fonetik parallelizmni namoyon etadi.	Adabiy tilning shakllanishida dialektal qatlamning o'rnini aniqlashga yordam beradi.
Identifikatsiya va tipizatsiya vositasi	Qahramonlarning nutqida qo'llangan dialekt so'zlar ularning ijtimoiy kelib chiqishi, milliy-mintaqaviy tipini ochib beradi.	Obrazlarni individuallashtiradi, ertakdagi personajlarning til vositasida farqlanishini ta'minlaydi.

Ertakchining nutqi ko'pincha adabiy til qoidalaridan chekinib, mahalliy shevalar asosida shakllanadi. Natijada ertak matnida shevaga oid leksik birliklar, ya'ni hududiy xususiyatga ega so'zlar keng qo'llanadi. Bu hodisa nafaqat ertakning realistik fonini yaratadi, balki uning estetik ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Tilshunoslikda shevaga xos so'zlar fonetik, leksik, semantik, etnografik va sintaktik dialektizmlar sifatida qaraladi [Жуманазарова 2012, 90]. Fonetik dialektizmlar xalq ertaklari tilida kam uchraydi, asosiy dialektal birliklar leksik va semantik jihatdan farqlanadi. Shu bois fonetik dialektizmlarni faqat bitta lahja doirasida tahlil qilish aniq ilmiy mezonlar asosida chegaralanmagan natijalarga olib keladi. Bu esa xalq ertaklarining tili materiallari asosida olib borilgan kuzatuvlar fonetik tafovutlarning alohida bir shevaga emas, balki turli lahjalarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlar majmuasi sifatida ifodalanishini ko'rsatmoqda. Masalan: *Bektemir botir: "Men o'zim yakka boraman! Qirq yigitning keragi yo'q!" – debdi. Shunda Odilxon yaxshi otni yasatib egarlatib, jaganlatib, necha otga oltin-kumush orttirib beribdi* (Oltin beshik. "Bektemir botir", 93-b.) Ushbu misolda ertak aytuvchi tilidan yozib olingan matnning qipchoq lahjasiga xos xususiyatlarini ko'rish mumkin. Xususan, *yugan* so'zining *jagan* tarzida talaffuz qilinishi qipchoq lahjasi vokalizmi va undoshlarning fonetik almashuvi natijasidir. Fonetik jihatdan bu almashuv adabiy til me'yoridan chekinish bo'lsa-da, ertak tili uchun muhim bo'lgan ikki jihatni ta'minlaydi:

1) tarixiy-lingvistik merosni aks ettirish. "Jagan" shakli qadimgi turkiy til qatlamidagi ayrim variantlarning davomchisi

bo'lib, dialektal izoglossani ifodalaydi;

2) *badiiy-estetik kolorit yaratish*. Qahramon nutqiga xalqona tus berib, ertak aytuvchining og'zaki ifoda uslubini tabiiy holda saqlaydi.

Bu kabi fonetik dialektizm matnga nafaqat lingvistik manba sifatida qadriyat, balki badiiy-ekspressiv vosita sifatida ham xizmat qiladi. U ertak tilining jonli xalq nutqiga yaqinligini ta'kidlaydi va adabiy til me'yorlari bilan dialektal variantlar o'rtasidagi interferensiya darajasini ko'rsatadi.

Podsho: "Endi niyatimga yetdim-a" deb ko'nglidan o'tkazibdi, xabar keltirganlarga bir kap, bir kap tilla beribdi (Oltin beshik. "Oypari", 174-b.) Ushbu misolda anglashiladiki, sheva ta'sirida undosh tovushning tushishi, ya'ni apokopa hodisasi yuzaga kelganligi ko'zga tashlanadi. Adabiy til me'yorida mavjud bo'lgan kaft shaklida **-ft** undoshlar majmuasi qat'iy saqlansa, ertak matnida *kap* tarzida qo'llanib, oxirgi **t** undoshi talaffuzda tushirib qoldirilgan. Bu hodisa ertak qahramonining hududiy nutqiy xususiyatlarini ko'rsatibgina qolmay, balki matnda xalq og'zaki ijodiga xos jonlilik va tabiiylikni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, bu kabi fonetik qisqarishlar dialektal nutqning adabiy tilga ta'siri darajasini, hududiy talaffuz me'yorlarining folklor matnlarida qanday shaklda saqlanib qolishini aniqlash imkonini beradi. Fonetik nuqtayi nazardan qaralganda, **kaft - kap** varianti konsonant klasterining soddalashuvi natijasi sifatida yuzaga keladi. Bunday holatlar ko'pincha qipchoq lahjasiga mansub shevalarda uchrab, dialektal izoglossalarni belgilovchi muhim belgilar hisoblanadi. Ertak matnidagi fonetik dialektizm bir tomondan, hududiy talaffuzni aks ettiruvchi lingvistik manba, ikkinchi tomondan esa ertakning badiiy-ekspressiv qiyamatini oshiruvchi stilistik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bir qancha yo'l bosgandan keyin, yetay-yetay deb qolishgani-da, haligi qatiqni chochib (sochib) yuborishibdi. (Oltin beshik. "Ilon og'a", 220-b.) Ushbu ertak matnidagi *chochib* dialektizmi adabiy tildagi *sochib* shakliga nisbatan fonetik farqni ko'rsatadi. Bu holatda dastlabki **s-** undoshi **ch-** bilan almashib, konsonantizm tizimidagi fonetik variativlik yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu hodisa affrikatsiya (*s - ch*) yoki undoshning palatalizatsiyalashuvi natijasi bo'lib, xalq shevalarida keng tarqalgan. Mazkur fonetik o'zgarish konsonant almashuvi hodisasi hisoblanib, ertak matnida uchraydigan bu shakl hududiy talaffuzning aniq izoglossasi sifatida baholanishi mumkin. Lingvopoetik vosita sifatida ertak qahramonlari nutqini xalqona va samimiy ohangda tasvirlab, badiiy matnga jonlilik bag'ishlaydi.

Chochib shaklining qo'llanishi nafaqat hududiy shevaga mansublikni belgilaydi, balki xalq ertaklarining tabiiy og'zaki nutqqa yaqinligini, milliy-lokal koloritini ifodalovchi muhim fonetik dialektizm sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

O'zbek shevalarida shunday fonetik jarayonlar mavjudki, bu jarayon "biror tovush ta'sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi" [Ashirboyev 2021, 44]. Quyidagi ertak matnida aynan shu holatni ko'rish mumkin: *Sen bilan savol-javob qilib o'ttirishga bardoshim yo'q, – debdi podsho* (Oltin beshik. "Oypari", 175-b.)

Sheva ta'sirida adabiy til me'yorida mavjud bo'lgan *o'tir* shakli *o'ttirish* ko'rinishida qo'llanib, fonetik tarkibda qo'shimcha undosh tovushning paydo bo'lishi, ya'ni epenteza hodisasi kuzatilmogda. Bu holatda **-lt** birikmasi tarixiy fonetik o'zgarish natijasi bo'lib, so'zning tarkibiga singib ketgan. Mazkur fonetik variant ertak aytuvchining jonli nutqini, qahramonlar tilining hududiy ranginligini ifodalaydi. Shuningdek, ertak matnini adabiy tildan farqlab, unga xalqona ohang, samimiylik va tabiiylik bag'ishlaydi. "*O'ttirish*" shaklining qo'llanishi shevaning fonetik jarayonlarini, xususan, epenteza asosida shakllangan dialektal fonetik xususiyatni ifodalaydi va ertak tilida nafaqat lingvistik manba, balki badiiy-ekspressiv vosita sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

Ba'zan shevalarda shunday murakkab fonetik jarayonlar mavjud bo'ladiki, bir vaqtning o'zida bir nechta fonetik hodisalar ro'y beradi. *Bor ekan, yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, bo'ri bakavul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, tovuq qaq etdi, bilmadim qaqqa ketdi* (Oyjamol. "Xo'jamurod", 84-b.).

Mazkur ertak kontekstidagi **qaqqa** dialektizmi o'zbek adabiy tilidagi **qayoqqa** shakliga mos keladi. Bu yerda fonetik qisqarish hodisasi, aniqrog'i, sinerez, ya'ni qo'sh undosh va unlining qisqarishi, sinkopa, ya'ni so'z tarkibidan tovush yoki tovushlar guruhining tushishi hamda apakopa, ya'ni ba'zi tovushlarning tushib qolishi jarayoni kuzatiladi. Natijada *qayoqqa* shakli qisqarib, *qaqqa* ko'rinishini oladi. Bu kabi fonetik o'zgarish ertak matnida ikki xil funksional vazifani bajaradi:

1) hududiy-dialektal belgini ifodalash. Bunda ayrim o'zbek shevalarida uchraydigan tabiiy fonetik qisqarish mahsuli bo'lib, ertak aytuvchining hududiy nutq xususiyatini namoyon qiladi;

2) badiiy-ekspressiv vosita sifatida xizmat qiladi. Bu fonetik variant ertak tilining xalqona, jonli ohangini kuchaytiradi.

Qisqa va ritmik shakl ertakning ohangdorligini ta'minlab, tinglovchiga esda qolarli musiqiylik beradi.

Qaqqa dialektizmi adabiy til me'yoridagi qayoqqa shaklining qisqarib, tovushlarning tushishi orqali yuzaga kelgan fonetik differentsiatsiya mahsulidir. U ertak matnida nafaqat tarixiy-lingvistik dalil, balki estetik-ekspressiv ifoda vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek shevalarida tovush almashinuvi hodisasi keng kuzatiladi. Ushbu fonetik jarayon xalq ertaklari tilida ham o'z ifodasini topib, bir tomondan, hududiy nutq xususiyatlarini namoyon qilsa, ikkinchi tomondan, ertak matnining xalqona ruhini va jonli ohangini ta'minlaydi. Masalan: *Tulki debdi: Momam (momo) uyiga boraman. Chol: Momang senga ne berar?* (Oyjamol. "Jovur chol", 117-b.); *Sari (sara) kavish (kavush), sanama juvon. Gul-gul ko'ylak, gulama juvonman. Senga tegib, kaltak yeguncha itga tegay, — deb yo'lida ketaveribdi* (Oyjamol. "Qo'ng'iz bikach", 117-b.).


Bir unli va bir undoshning tushib qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan shakli hisoblanadi. Bu hodisa fonetik iqtisod sifatida qayd etilib, ertak matnlarida ham o'z ifodasini topadi. *Namuncha g'amga botmasangiz.* (Oltin beshik. "Oypari", 174-b.) Mazkur misoldagi "Namuncha" dialektal leksemasi adabiy tildagi nima (nega) buncha shakliga to'g'ri keladi. Bu yerda bir nechta fonetik va morfologik o'zgarishlar kuzatiladi. Fonetik qisqarish (eliziya) ro'y berib, *nima* so'zidagi *i* unli tovushi tushib qolib, soddalashgan holda *na-* shaklini olgan (*nima - na*). Bundan tashqari, assimilyatsiya hodisasi ham ko'zga tashlanib, *nega buncha* shaklida uchraydigan *buncha* so'zi bilan qo'shilib, talaffuzda *namuncha* shaklini yaratgan. Aytish joizki, ushbu dialektal variantlashuv qator o'zbek shevalarida nima buncha - namuncha shakli barqaror qo'llanib keladi va ertak matnida ham aynan shu variant aks etgan.

Oqbilakman men qaytguncha Salomat bo'l, yo'lni ko'zlab! (Oltin beshik. "Bektemir botir", 174-b.) Ushbu ertak matnida ham murakkab eliziya hodisasi ro'y berib, "*Oqbilakman*"da "Oqbilak+bilan" shaklidagi "*b*" undoshi "*m*" undoshiga moslashib, "*i*" unlisi tushib qolgan. Bu esa bir vaqtning o'zida ikkita fonetik hodisa va jarayonning yuzaga chiqqanligidan dalolat beradi.

Mazkur shakl o'zbek tili tarixida keng qo'llangan bo'lib, bugungi kunda ham ayrim shevalarda faol ishlatilmoqda. Shu bois "*Oqbilakman*" singari fonetik qisqarishlar ertak matnida nafaqat tarixiy-lisoniy qadriyat sifatida, balki lingvopoetik imkoniyatni boyituvchi vosita sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, shevalarda kuza-tiladigan murakkab fonetik jarayonlar nafaqat mahalliy nutq xususiyatlarini belgilab beradi, balki ular o'zbek tili tarixining muhim bosqichlarini yoritishda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlar ertak matnlarida tabiiy holda namoyon bo'lib, bir tomondan, xalq og'zaki ijodining jonli va obrazli tilini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, adabiy til bilan dialektal qatlam o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatadi.

Murakkab fonetik o'zgarishlarning tizimli tahlili orqali orqali quyidagilarni ilmiy asosda aniqlashga imkon beradi.



O'zbek shevalarida murakkab fonetik jarayonlarning ilmiy ahamiyati

Ba'zan fonetik hodisalarda undosh tovushlarning ortishi kuzatiladi. Bu konsonant epiteza hisoblanib, ma'lum fonetik sabablarga ko'ra so'zning oxirida undosh tovush orttirilishini ifodlaydi. Masalan, **ul**, **bul**, **shul** kabi birliklarda adabiy tildagi **u**, **bu**, **shu** shakllariga "l" undoshi ortib qo'shilgan. Bu jarayon ayrim o'zbek shevalarida hamda qadimgi turkiy til yodgorliklarida muntazam uchraydi. Xususan, qadimgi yozma manbalarda **ol (u)**, **bul (bu)**, **shul (shu)** shakllari keng qo'llangan bo'lib, ular konsonant epiteza hodisasining tarixiy izlarini ifodalaydi. Ushbu fonetik jarayon xalq ertaklari tilida ham kuzatilib, dialektal qatlamning muhim ko'rinishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. *Yaxshi bo'lsa er yigitning xotini, alla, **Shul** chiqarar yigitning otini, alla* (Oyjamol. "Tuhmat", 63-b.) Bu holat o'zbek tili tizimining diaxronik rivojlanish bosqichlari, hududiy differensiasiya jarayonlari va lingvopoetik imkoniyatlarini yoritishda alohida lingvistik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq ertaklari matnidagi fonetik dialektizmlar faqatgina hududiy nutq xususiyatlarining yuzaki ko'rinishi emas, balki chuqur tarixiy-

lingvistik qadriyatga ega bo'lgan muhim lingvopoetik vositadir. Ushbu birliklar konsonant klasterining soddalashuvi, epenteza, eliziya va assimilyatsiyaning murakkab ko'rinishlari kabi fonetik jarayonlarning izlarini saqlab, o'zbek tilining diaxronik rivojlanish bosqichlarini yoritishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, lingvopoetik funktsiya jihatidan, fonetik dialektizmlar ertak qahramonlarining nutqini tabiiy, samimiy va xalqona ruhda tasvirlash orqali matnning areal koloritini kuchaytiradi va badiiy-estetik ekspressivligini oshiradi. Ular ertak tili va adabiy til me'yorlari o'rtasidagi farqni aniqlashga yordam beradi, shu bilan birga, xalq og'zaki ijodining o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi o'rnini ko'rsatuvchi ishonchli lingvistik dalillar hisoblanadi. Fonetik dialektizmlarni keng qamrovda tahlil qilish, mavjud ertak to'plamlaridagi barcha shevalarga xos fonetik o'zgarishlarni tizimli ravishda kataloglashtirish va ularning qaysi tarixiy sheva yoki lahjaga tegishlilikini ilmiy asoslash imkonini beradi. Folklor matnlardagi sheva unsurlarini tadqiqi shevashunoslik va lingvopoetika integratsiyasini kuchaytirishga keng yo'l ochadi. Shuningdek, ertaklarning turli variantlarini (aynan bir ertakning turli ertakchilardan yozib olingan matnlarini) qiyosiy tahlil qilish orqali fonetik dialektizmlarning doimiylik darajasini va ertakchining individual uslubidagi o'rnini aniqlashga va ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar

- Абдуллаев, Ф. 1966. *Хоразм шевалари лексикаси. Ўзбек шевалари лексикаси*. Тошкент.
- Абдуллаева, Д. 1999. *Ўзбек тили Ошоба шевасининг фонетик хусусиятлари*. Тошкент.
- Алиев, А. 1974. *Ўзбек диалектологиясидан материаллар*. Тошкент: Фан.
- Алиева, А. 1975. *Наманганская группа говоров узбекского языка*. Ташкент.
- Аллабердиев, А. 2016. *Бухоро ўғуз шевалари лексикаси қатламлари*. Тошкент: Абу матбуот-консулт.
- Аллабердиев, А. 2018. *Бухоро ўғуз шевалари лексикаси*. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. Тошкент.
- Бегалиев, М.Қ. 2007. *Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси*. Тошкент: Иқтисод-Молия.
- Дарвишов, И. 2019. *Ареал тилшунослик: Жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари*. Тошкент: Наврўз.

- Дониёров, Х. 1968. *Ўзбек халқининг шажара ва шевалари*. Тошкент: Фан.
- Жуманазаров, Ю. 1976. *Ўзбек тилининг жанубий Хоразм (ўғуз) диалектининг синтактик тузилиши*. Тошкент: Фан.
- Жуманазарова, Г.У. 2012. *Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил)*. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.
- Жўраев, Х. 1981. *Ўзбек тили турк-калтатой шевасининг фонетик ва лексик хусусиятлари*. Тошкент.
- Ибрагимова, У.Ю. 2019. *Қорақалпоғистон Республикаси ўзбек шеваларида сўз ясалиши*. Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. Қарши.
- Иброҳимов, Й. 2000. *Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи*. Филол. фан.д-ри. ...дис. Тошкент.
- Ишаев, А. *Ўзбек диалектал лексикографияси*. Тошкент: Фан, 1990.
- Ражабов, Н. 1990. *Ўзбек халқ шеваларида феълнинг морфологик тузилиши*. Тошкент: Фан.
- Рахимов, С. 1985. *Ўзбек тилининг Сурхондарё шевалари*. Тошкент.
- Рахимов, С. 1993. *Сурхондарё ўзбек шевалари луғати*. Денов.
- Решетов, В. В., Шоабдурахмонов, Ш. 1978. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Шоимова, Н. 2000. *Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси*. Қарши: Насаф.
- Allaberdiyev, A. 2025. *Vuxoro o'g'uz shevalarining til xususiyatlari*. Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. Qarshi.
- Ashirboyev, S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim.
- Enazarov, T.J., Karimjonova, A.V. va boshqalar. 2012. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Universitet.
- Nurmanov, F. 2024. *O'zbek dialekt va shevalaridagi yordamchi so'z turkumlarining areal tadqiqi*. Filol. fan. b. fals. dok. ...diss. avtoref. Samarqand.
- Qodirova, X. 2023. *Xorazm shevalaridagi laqablarning struktur-semantik va funksional xususiyatlari*. Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. Urganch.

Lingvopoetic Features of Phonetic Dialectisms (Examples of Dialectisms in the Texts of Uzbek Folk Tales)

Hamid Bozorov¹

Abstract

This article is devoted to the study of the lingvopoetic features and functional significance of phonetic dialectisms found in the texts of Uzbek folk tales. The study emphasizes the importance of fairy tale texts as a unique linguistic source that has preserved ancient strata of the popular language and archaic phonetic elements. The research conducts a systematic analysis of phonetic dialectisms, presented with illustrative examples. It explains that phonetic dialectisms in folk tales serve two main functions: firstly, reflecting the historical-linguistic heritage by preserving the traces of complex phonetic processes such as the simplification of consonant clusters, epenthesis, elision, assimilation, and consonant epenthesis; secondly, being used to naturalize the characters' speech, thereby creating artistic-aesthetic expressiveness and regional coloring.

Key words: *phonetic dialectisms, lingvopoetic features, dialects, isogloss, elision, epenthesis, affrication, consonantism, regional coloring, artistic expressiveness.*

References

- Abdullayev, F. 1966. *The Lexis of Khorezm Dialects*. Tashkent.
- Abdullayeva, D. 1999. *Phonetic Characteristics of the Oshoba Dialect of the Uzbek Language*. Tashkent.
- Aliyev, A. 1974. *Materials on Uzbek Dialectology*. Tashkent: Fan.
- Aliyeva, A. 1975. *Namangan Group of Dialects of the Uzbek Language*. Tashkent.
- Allaberdi, A. 2016. *Lexical Layers of Bukhara Oghuz Dialects*. Tashkent: Abu matbuot-konsult.
- Allaberdi, A. 2018. *Lexis of Bukhara Oghuz Dialects*. Abstract of the Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy in Philological Sciences. Tashkent.
- Begaliyev, M.Q. 2007. *Lexis of the Qorabuloq Dialect of the Uzbek Language*. Tashkent: Iqtisod-Moliya.

¹ *Hamid Bozorov* – PhD in Philology, Associate Professor, Termez State University.

Email: hamidbozorov65@gmail.com

ORCID: 0009-0002-1650-3801

For citation: Bozorov, H. 2025. "Lingvopoetic features of phonetic dialectisms (examples of dialectisms in the texts of Uzbek folk tales)". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 6 – 19.

- Darvishov, I. 2019. *Areal Linguistics: Phonetic and Phonological Characteristics of the South-Western Namangan Dialects*. Tashkent: Navro'z.
- Doniyorov, Kh. 1968. *Genealogy and Dialects of the Uzbek People*. Tashkent: Fan.
- Jumanazarov, Yu. 1976. *The Syntactic Structure of the Southern Khorezm (Oghuz) Dialect of the Uzbek Language*. Tashkent: Fan.
- Jumanazarova, G.U. 2012. *Linguopoetics of the Language of Fozil Yo'ldosh o'g'li's Dastans (lexical-semantic, linguostylistic, and linguostatistical analysis)*. Tashkent: Alisher Navoi National Library of Uzbekistan Publishing House.
- Jo'rayev, Kh. 1981. *Phonetic and Lexical Characteristics of the Turk-Kaltatoy Dialect of the Uzbek Language*. Tashkent.
- Ibragimova, U.Yu. 2019. *Word Formation in the Uzbek Dialects of the Republic of Karakalpakstan*. Abstract of the Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy in Philological Sciences. Karshi.
- Ibrohimov, Y. 2000. *Research on the Uzbek Dialects of the Southern Aral Sea Region*. Dissertation for the Degree of Doctor of Philological Sciences. Tashkent.
- Ishayev, A. 1990. *Uzbek Dialectal Lexicography*. Tashkent: Fan.
- Rajabov, N. 1990. *Morphological Structure of the Verb in Uzbek Folk Dialects*. Tashkent: Fan.
- Rakhimov, S. 1985. *Surkhandarya Dialects of the Uzbek Language*. Tashkent.
- Rakhimov, S. 1993. *Dictionary of Surkhandarya Uzbek Dialects*. Denov.
- Reshetov, V.V., Shoabdurahmonov, Sh. 1978. *Uzbek Dialectology*. Tashkent: O'qituvchi.
- Shoimova, N. 2000. *Lexis of Kashkadarya Uzbek Kipchak Dialects*. Karshi: Nasaf.
- Allaberdiyev, A. 2025. *Language Characteristics of Bukhara Oghuz Dialects*. Abstract of the Doctoral Dissertation (DSc) in Philological Sciences. Karshi.
- Ashirboyev, S. 2021. *Uzbek Dialectology*. Tashkent: Nodirabegim.
- Enazarov, T.J., Karimjonova, A.V. et al. 2012. *Uzbek Dialectology*. Tashkent: Universitet.
- Nurmanov, F. 2024. *Areal Study of Auxiliary Parts of Speech in Uzbek Dialects and Subdialects*. Abstract of the Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy in Philological Sciences. Samarkand.
- Qodirova, Kh. 2023. *Structural-Semantic and Functional Characteristics of Nicknames in Khorezm Dialects*. Abstract of the Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy in Philological Sciences. Urgench.